XALQ DEPUTATLARI KO‘KDALA TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 18 - dekabr VI-14-82-4-224-K/23 Ko‘kdala tuman hokimligi

Ko‘kdala tuman mahalliy budjetining 2023-yil qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi”ning 126-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-mart “Xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5020-son qarori, 2021-yil 13-aprel “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5072-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-mart “Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 132-son qarorining ijrosini taminlash maqsadida tuman hokimligining tuman mahalliy budjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan bildirilgan takliflar, fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Ko‘kdala tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1.Tuman hokimligi tuman mahalliy budjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin va **ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

2.Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Muxammadiyev) tuman mahalliy budjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”, “Fuqarolar tashabbusi” hamda “Saxovat va kumak” jamg‘armalariga ajratiladigan mablag‘lar tuman hokimligida ochilgan tegishli jamg‘armalarning maxsus hisob

raqamlariga ajratilishini ta’minlasin.

3.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Do‘stov) hamda tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Muxammadiyev)lar;

-belgilangan muddatlarda mazkur qarorda ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash maqsadida tegishliligi bo‘yicha mablag‘larni moliyalashtirish choralarini ko‘rish,

-O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi talablariga asosan tuman mahalliy budjetining xarajatlar qismiga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish,

-ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganishlar o‘tkazish, o‘tkazilgan o‘rganishlar natijalariga ko‘ra, ishlatilmasdan qolgan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

4.Tuman hokimligi, tegishli tashkilot rahbarlari va mas’ul xodimlariga,

-mazkur qarorda ko‘zda tutilgan mablag‘lardan o‘z vaqtida belgilangan tartiblar asosida maqsadga muvofiq foydalansinlar.

5.Tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi (X.Ruziev) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

6.Xalq deputatlari tuman Kengashning deputatlari tuman hokimligi bilan birgalikda qo‘shimcha manbalarning 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarga yo‘naltirilishi bo‘yicha “Ochiq budjet” tizimi to‘g‘risida aholini xabardor qilish va ularning ushbu tadbirlarda faol ishtirokini ta’minlash maqsadida joylarda tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borsin.

7.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Ko‘kdala tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi F.Bektemirov, hamda tuman hokimining birinchi o’rinbosari B.Do‘stov zimmalariga yuklatilsin.

8.Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **X.Djurayev**

Xalq deputatlari Ko‘kdala tuman
Kengashining
2023-yil 18-dekabrdagi
VI-14-82-4-224-K/23-son qaroriga
1-ilova

Ko‘kdala tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar.

(mln.so‘m)

T/r	Mablag‘ ajratiladigan tashkilot nomi	Tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘lar miqdori
1.	Tuman hokimligiga	Tumanda **«Ayollar daftari»**ga kiritilgan xotin-qizlarni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish, ularning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishi hamda bandligini ta’minlashga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq xarajatlarga	202.0
2.	Tuman hokimligiga	Tumanda **«Yoshlar daftari»**ga kiritilgan yoshlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, ularni ijtimoiy-huquqiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash, kasbhunarga o‘rgatish va bandligini ta’minlash ishlari bilan bog‘liq xarajatlarga	202.0
3.	Tuman hokimligiga	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga	404.0
4.	Tuman hokimligiga	Tuman “Saxovat va kumak jamg‘armasi” orqali kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir martalik moddiy yordam puli, mevali va manzarali daraxt kuchatlari sotib olish hamda kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa xarajatlarga	200.0
	Jami:		1008.0

Ajratiladigan mablag‘lar miqdoriga yakuniy hisob-kitoblar asosida o‘zgartirish kiritilishi mumkin.